

HIKOYALARDA IBRATLI QAHRAMON TASVIRI

Sh.Aldasheva – *filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: hikoya, qahramon, timsol, ibrat, janr, ma'naviyat, davr, adib, yozuvchi, persanoj, konflikt, qissa va boshqalar.

Ключевые слова: рассказ, герой, символ, пример, жанр, духовность, эпоха, писатель, литератор, персонаж, конфликт, новелла и т.п.

Key words: story, hero, symbol, example, genre, spirituality, era, writer, writer, character, conflict, short story, etc.

«...adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q [1].

O'zbek adabiyoti rivojiga o'zining qator asarlari bilan munosib hissa qo'shgan Shuhratni milliy nasrimizda o'z uslubiga ega yozuvchilarimizdan biri sifatida e'tirof etish o'rinli.

Shuhrat hikoyalari nazar tashlar ekanmiz, hayotimizning har jabhasiga oid qarashlar, teran mulohazakorlik bilan birga ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langanligi adibning boy pedagogik merosi ta'lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni talabalar qalbida shakllantirishda axloqiy va ma'naviy barkamol tarbiyalashda milliy maktab va qimmatbaho manbaa bo'lib xizmat qilmoqda. Har bir millatning o'z ma'naviy qiyofasi mavjud. Bugungi kunda har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimizda ma'naviyatni yuksaltirish yuksak vazifalardan biridir. Ma'naviyatimizni yanada rivojlantirishda esa millatimiz tarixini, ma'naviy qiyofasini o'zida badiiy aks ettirgan tarixiy badiiy hamda ilmiy asarlarning ahamiyati va o'rni beqiyosdir. O'zbek adabiyotida bunday asarlar juda ko'p. Ular yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Bu jihatdan, tanqli o'zbek adibi Shuhratning "Oltin zanglamas", "Shinelli yillar" kabi romanlari bilan badiiy adabiyotimizga o'ziga xos haykal qo'ya olgan bo'lsa, "Qodir ota", "Otangga rahmat" "Tezoqar suv" kabi hikoyalari xalqimizning o'ziga xos urf-odatlarini, yashash tarzi, orzu-armonlarini aks ettirgan.

Bu kabi hikoyalarni yaratishda boshqa ijodkorlarda uchramaydigan hodisa milliy va mahalliy kolorit yaqqol ko'rinish turadi. Bugungi globalashuv davrida xalqlarning milliy o'ziga xosligi, asrlar davomida rivojlanib kelgan qadriyatlarini asrab-avaylash har qachongidan dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shularni hisobga olgan holda Shuhrat hikoyalari tahlil qilib undagi o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy va mahalliy koloritni ko'rsatib o'tishga harakat qildik. Zero hikoya – alohida mahorat, lo'ndalik, fikr va tuyg'ularni bir yerga to'plashni talab qiladigan qiyin janr. O'zbek adabiyotshunosligida hikoya janri bo'yicha bir qancha dissertatsiyalar [2] himoya qilingan. Ammo biz tahlilga tortgan Shuhrat hikoyalari syujet va obraz yaratish mahorati va kolorit masalasi alohida tadqiq va tahlil qilingan emas. Misol uchun adibning "Balog'at" hikoyasi bosh qahramoni O'lmasxon ruhiy olamida kechayotgan bu g'alayonlar hayotiy vaziyat tufayli shakllangan. Hikoyada O'lmasxon ko'ngli g'ash bo'lib, ruhan ezilib, qiyinlab yurishi adib tomonidan ishonarli tasvirlangan. Injenerlikda o'qiydigan O'lmasxon ikki yil o'qishini musofirchilikda davom ettiradi. Mana shu o'qish davrida o'z kasbining ustasi bo'lgan Varvara Petrovnadan saboq oladi. Nafaqat ma'ruzalarini tinglaydi, balki uning mehr-shafqatidan bahramand bo'ladi. Musofirchilikda bir oycha kasal bo'lib qolganida, undan tinimsiz xabar olib, hattoki topilishi qiyin bo'lgan kamyob dorini topib berdi. O'lmasxon bundan o'ng'aysizlanganda, Varvara Petrovna uni urishib: "– Uzug'ingning ulog'i, yirtig'ingning yamog'i bo'lmagan do'stning boridan yo'g'i yaxshi. Do'stning sinovi tashvishli kunlar, ayriliq, shundaymasmi? Axir siz

bilan biz bir daraxtning barglarimiz, nega o'ng'aysizlanasiz!" [3], degani va keyin uni tuzalib qaytishi bilan dachasiga olib ketib, avval sog'liq kerak, busiz ilm olib bo'lmaydi, deb yaxshi parvarish qilgani yodiga tushib vijdoni qiynaldi. Bu yerda boshqa ijodkorlar asarlarida uchramaydigan odamiylik tuyg'usi, barcha xalqlar uchun xos ekanligini ko'rsatadi.

Adib asar qahramonini to'laqonli obraz sifatida yaratish uchun inson ruhiyatini yaxshi bilmog'i lozim. Sababi "Qahramon – bu quyulma (prototip - izoh N.S.). Uni yaratish uchun yuzlab odamlarni uchratish kerak, biroq bu uchrashuvlar kamlik qiladi – quyulmani yaratish uchun avtor o'zidan biron narsa qo'shishi kerak" [4], – degan qarashlarga amal qiladi. Shuhrat Bashorat obrazini yaratish uchun jamiyatdagi o'nlab prototiplarni kuzatdi, o'rgandi. Natijada mukammal obraz yaratishga muvoffaq bo'ldi.

"Bosh prorab, yosh bo'lsa-da o'z kasbining ustasi darajasini egallagan Bashorat ulkan, besh qavatli binodagi ministrlikdan tushgan ustoz Varvara Petrovnaning proyektni sinchkovlik bilan ko'rib chiqishida, uy balkonlarini ortiqcha serbezak va dabdabali hashamatdor bo'lishi natijada bino qurilishi qimmatga tushishini aniqlagani va o'ziga qarshi fikrlarini aytishi hikoya tugunini yuzaga keltirgan" [5].

"Ustoz otangdek ulug'" aqidasiga rioya qilayotgan, sharqona tarbiya olgan O'lmasxon, qolaversa, uning mehr-muhabbatidan bahramand bo'lgan inson sifatida, ustozning loyihasiga qarshi chiqishi va o'z loyihasi taklifini berishi uning yurak-bag'riga nishtar kabi sanchilar edi. Buni ustoz qanday qabul qilishini bilmas, uni ranjitib qo'yishni o'ylasa, vijdoni qiynalar edi. Adib Bashoratning ruhiyatida kechadigan ikkilanish holatini quyidagicha tasvirlaydi. Go'yoki Varvara Petrovna unga qarab: Balli, balli! Shuncha yaxshiligim evazigami bu? Qachon yaxshilikka yaxshilik qaytibdi! [5], deyayotgandek ko'rinar edi. Bashorat bu holatga, ya'ni ustoz qarshisiga chiqishga aslida uzoq tunlar o'ylanib, aytadigan fikrlarini pishitib, oxiri uzil-kesil xulosaga kelgandan keyin bosh injenerga ma'lum qilgan edi. Endi esa sarosimada, nima qilish kerak, yuz-ko'zga tushib, andisha Bashoratni bir pastda shogirdlik maqomiga tushirdi. Lekin O'lmasxonning Varvara Petrovnadan olgan tarbiyasi yuzaga chiqib, haqiqatni har qanday sharoitda bo'lsa ham aytish kerak, degan qarorga keldi.

Mana endi o'sha kutilgan kun keldi. Varvara Petrovnaning o'zi projekt taqdimotiga kelayotganini eshitgach, Bashoratni qora ter bosdi. Kamiga dugonasi Hanifa ustoz qilgan behisob qilgan yaxshiliklarni pisanda qilib, insofga chaqirib: Siz mendan o'rganing", deysanmi? Yaxshimas, O'lmas! Kishiga hayo kerak. Bilimdonlik ham evi bilan! Hali ham shu ishingdan qayt, hali kech emas. Keyingi pushaymon – o'zingga dushman – degan so'zlari battar O'lmasxonni hayajonga solar edi. Ichini tinmay tirnayotgan savollar, taxminlar uning jussasiga og'irlik qildi.

O'lmasxon xarakteriga xos o'jarlik xususiyati hikoyada mohirona tasvirlangan. Projekt muhokamasiga O'lmasxon ustoz, qolaversa, markazdan kelgan vakilaning projektini qanday qilib tanqid qilar ekan, degan qiziqishda yig'ilishlarga kelmaydigan master va brigadirlargacha kelgan. Hikoya o'z kulminatsion nuqtasiga shu o'rinda yuqoriga ko'tariladi. Bosh injener bilan projekt smetasini ko'rib chiqayotgan Varvara Petrovna O'lmasxon bilan

doimgidan boshqacharoq ko'rishdi. Bu albatta O'lmasxonning nazaridan chetda qolmadi. Lekin O'lmasxon o'jarlik bilan proyekt haqida qarashlarini yig'ilish muhokamasiga kelganlarga bildirib o'tdi. Muhokama boshlangandan to oxirigacha jim o'tirgan Varvara Petrovna o'z proyektini himoya qilishga ham, qurilish boshlig'i "Varvara Petrovna, so'zlaysizmi?" deganda "yo'q, o'ylab ko'rishim kerak", degancha yig'ilish tugashi bilan xayrlashmay ketishi bosh qahramon O'lmasxonga yomon ta'sir qilganini, hikoyada yozuvchi qahramon ruhiyati, ichki kechinmasida shunday tasvirlaydi: Mendan xafa bo'ldi. Hanifa to'g'ri aytgan ekan", degan xayolga keldi. Mundoq atrofiga qaragan edi, Hanifaning ko'zini uchratdi, Uning ko'zlari "xo'sh, endi qalaysan? Kim haq ekan? Maslahatimga ko'nmading, ayb o'zingda" degandek edi...Erining dalda berishlaridan ancha ko'ngli tinchigan bo'lsa ham, baribir tuni bilan tinch uxolmadi: allaqanday mujmal tushlar ko'rdi. Ertalab og'ir kasal bo'lgan kishidek rangi siniqib turdi..

Ijtimoiy hayot, ish jarayoni bilan bog'liq islohotlar tufayli O'lmasxon tafakkuri, dunyoqarashi, ruhiy dunyosi, ma'naviy qiyofasining o'ziga xosliklari hikoyada yaqqol ko'zga tashlanadi. Ustozi Varvara Petrovnani ranjitib qo'ydim, endi yuz ko'rmas bo'lib ketamiz, degan o'y unga bir zum bo'lsa-da tinchlik bermasdi. Muhokamaningertasiga qo'li ishga bormagan, rangi siniqqan O'lmasxonnikiga Varvara Petrovnaning kirib kelishi O'lmasxon uchun kutilmagan sovg'a bo'ldi. U Varvara Petrovna to'g'risida noto'g'ri fikrga borganligi uchun biroz o'ng'aysizlandi. O'lmasxon, ayniqsa ustozining to'liqlanib aytgan "Xafa bo'lish xayolimga ham kelgani yo'q. Aksincha, sening o'sganingni, balog'atingni ko'rib quvondim. Yo'q, yo'q, to'g'ri daraxtdan egri soya tushmaydi! Nahot men do'stona fikr, tanqiddan yuz o'girsam. Axir sen bilan bizni balog'atga yetkazgan, ulg'aytirgan mana shu do'stona tanqid va tuzatishlar-ku! Demak, sen mening o'rnimda bo'lganingda xafa bo'larkansan-da. Shundaymi? O'lmasxon javob o'rnida boshini quyi soldi. –Tanqiddan xafa bo'ladigan kishi kelajagidan umidini uza bersin. Do'stona, to'g'ri tanqid, tuzatishlarga quloq solmagan odam ildiziga buzoqboshi tushgan mevali daraxt. Hosildan qoladi. To'g'ri tanqid jizzaki, o'z kuchiga, uquviga ishonmagan kishilarda qasos, alam tuyg'usini uyg'otadi. Axir shamol ham yengilni uchiradi-da, og'irni qo'zg'atib ko'rsin-chi!", degan gaplari O'lmasxonning butun noto'g'ri o'y-fikrlarini tarqatib yubordi. Bu parchadan shu narsa anglashiladiki, inson uchun nafaqat o'zganing, balki o'z ruhiyatini anglash, tushunish ham ancha qiyin ekanligini yozuvchi O'lmasxon obrazida "Mana endi, shu gapingdan xafa bo'ldim. Chindan xafa bo'ldim. Sen meni bilmas ekansan!" degan Varvara Petrovna so'zlari orqali ko'rsatib beradi. Hikoyada O'lmasxon ruhiyatidagi xatti-harakatlari va sezimlari hikoyada mantiqan uyg'unlashib, hayot mantig'iga monand kelgani hikoyaning o'qimishli chiqishini ta'minlagan.

"Adabiyot shunday borliqki, unga qaragan kishi (millat) go'yo ko'zguga boqib o'z holini ko'radi". Adibning xuddi shunday "Aldanish" hikoyasi hayotiy konflikt asosida yaratilgan bo'lib, unda jamiyatda urchib kelayotgan nojo'ya harakatlarni ko'ramiz. Hikoya institutning aspirant o'qituvchisi Nosirjon bilan univermag sotuvchisi Nazokatxon o'rtasidagi munosabat va ziddiyat asosiga qurilgan. Hikoya Nosirjonning boshidan o'tkazganlarini aytib berish yo'li bilan yozilgan.

Hikoyadagi qahramon Nosirjonning o'zi haqidagi hikoyasini qandaydir mungli ohang, alam bilan: Nima bo'ldi-yu, vaqtida uylanolmadim, yoshim o'tinquirab qoldi. Tepa sochim siyraklashib, chakkamda uch-to'rtta oq tola ham paydo bo'libdi. So'ligan guldin asalari bol emmaydi – bu to'g'ri gap. Bo'lmasa birorta qizga yoqib qolardim. Yo o'zim xushomad qilishni bilmaymanmi?, - deya o'ylay boshlagan Nosirjon tezda pessimistik holatdan o'z hayot

yo'liga boqishi orqali, masrurlanib, o'n yillik o'qishni yaxshi tugatib, er yigit qilishi kerak bo'lgan xizmatni – armiyani sharaf bilan bajarib, o'qishga kirib, a'lo baho va yaxshi xulqi uchun aspiranturada qolganini aytar ekan, g'ururlanib "...Xullas mendan, nazarimda, kamchilik topib bo'lmaydi: yigitmisan, yigitman. Bir jonon, sanama rasta qizning qo'ltig'ida yursam xijolatda qo'ymayman. Bir shoxda ochilgan qo'shloq gulga o'xshab ketsak kerak", deydi.

Lekin hayot murakkab, goho beshafqatligini unutgan hikoya qahramonining chin yurakdan qilgan orzusi "astoydil sevmuqchiman, sevilmoqchiman va sag'ana toshini bosgunimcha birga-birga umr kechirmuqchiman" degan o'ylari sarob bo'lib chiqishi hikoya syujetini tashkil qiladi. Hayoti mazmuni o'qish va ishdan iborat bo'lgan Nosirjon yangi yil kutish bahonasida qo'yarda-qo'ymay uyiga taklif qilgan qadrdon do'sti Qosimnikiga bordi-yu, sof taqdiri yo'liga o'z manfaati uchun kirib kelgan Nazokatxonni uchratdi.

Hikoyada yaxshi turmush yo'lida o'zini o'tga-cho'qqa uradigan, sabru qanoatdan yiroq Nazokatxonning ruhiy dunyosi favqulodda vaziyatlar tasviri asnosida g'oyat ta'sirli ko'rsatib berilgan. Hikoya qahramoni Nosirjon nazariga tushgan, uning hushini o'g'irlagan Nazokat sakkizinchi sinfni bitirgan yili otasi vafot etganligi uchun ishlashga majbur bo'lganini, hozir univermagda ishlashi, maqsadi bitta ukasini institutga kimgazish ekanligini sekingina gap orasida qistirib o'tadi. Ko'zlari bir onda uzoq yillar kutib yurgan muhabbatini topgandek bo'lgan Nosirjon hayotida tub burilish shu lahzadan boshlandi.

Nosirjon bilan Nazokatxon ikki dunyo kishilari bo'lib, ularning dunyoqarashlari ham turlicha edi. Nosirjon ilmga chanqoq, ishini yurakdan yaxshi ko'rar, o'zi ishlaydigan institutga sidqidildan xizmat qilishni o'zining burchi deb bilar, har bir ishga mas'uliyat bilan yondoshar edi. Buni biz hikoyada keltirilgan Nosirjon bilan Nazokat suhbatidan ham anglashimiz mumkin:

Muncha kitobga mukka tushmasangiz, moyi chiqadimi. Sog'liq ham kerak. Tashqarida biram ajoyib havoki, yurgan sari, yurging keladi. Shuncha mashq qilgannngnz yetar, - dedi ming bir karashma bilan atrofga atir hidlarini taratib. – Mashq qilib, boyitib turilmagan ilm suvning bug'lanishiga o'xshaydi, yaxshi qiz, biror yildan keyin hech narsa qolmaydi.

Hayotiga ilk kirib kelgan muhabbati Nazokatni baxtli qilish Nosirjonning birdan-bir orzusiga aylangan, uning kamchiliklari, nuqsonlarini ko'zlari ko'rmas edi. Nazokat uning hayotiga yo'lini yorituvchi bir mayoqdek kirib, uni o'z asiriga aylantira olgan edi. Asarda Nosirjonning bu holati o'z tilidan shunday hikoya qilinadi: Nazokatxon menga yoqib qolgandi. Kunlar o'tgan sari uning o'zidan ham xayoli shirin bo'la boshladi. Xayolimda asldan ham chiroyliroq ko'rinar, yo'q fazilatlarini ochilardi. Endi uning o'zi emas, u turgan ko'cha ham jozibali bo'lib xayolimdan o'tardi. Bir kun hatto tushimga ham kirib chiqdi. Shunday kuchli muhabbat ila beg'araz sevgan Nosirjondan Nazokat o'z manfaatlarini yo'lida foydalanishni maqsad qilgani hikoyada ishonarli tasvirlab beriladi.

Nazokatxon yaxshi yashash, oilasidagi turmush muammolarini hal qilish, xususan, ukasining hayotini izga solish uchun har qanday pastkashlikdan qaytmaydigan, ming taassufki xudbin ayol obrazidir. Ukasini Nosirjonning oldiga tanishtirgani olib kelar ekan, ukasiga yaxshilab tanib olishini "Qo'y boradi qo'zi bilan, bir-birining izi bilan. Etaklaridan mahkam ushlasang bo'lgani", - degan so'zlari Nazokatxonning g'arazli niyatini ma'lum darajada oshkora qilganini ko'rgan Nosirjon uni univermagdagi bejirimgina bir xotin bilan avvaliga pichirlashib, xayrlashgan kishidek bo'lib, yashirincha xotinning qo'liga bir narsa qistirganini ko'rib hayron qoladi. Yozuvchi hikoyada Nazokatxon qiyofasini, uning xarakterini ishonarli tasvirlarda ifoda etgan: Ukam o'qiydigan maktab direktorining xotini. Bir

narsa iltimos qiluvdi, bugun mavridi kelib qoldi. Oila boshlig'i bo'lganidan keyin qiyin: ukam bechora qiyinalmasin, bitirib olsin deyman. -Mayuslangansimon so'zladi u, keyin kulibgina qo'shib qo'ydi: -Shunaqa, Nosirjon aka, burga tutish uchun ham barmoqni ho'llash kerak!.

Nazokatxonning xatti-harakatlari yozuvchi tomonidan katta dard bilan tasvir etilgan. Chunki jamiyatda urchib kelayotgan bu og'riqli nuqtalar adibning nazaridan chetda qolmagan. "Nazokatxonning bugungi xatti-harakati ko'zga tushgan oqdek menga g'alati ko'rinib ketdi. Tezroq chiqib ketgim kelib qoldi. Ichki bir tovush menga "Qayoqqa borasan shunday qizni tashlab. Kimda nuqson yo'q" deb hayqiradi. Oyog'imdan darmonim quridi. Ana shunda uning muhabbati yuragimga qo'rg'oshin bo'lib quyilib ketganini butun vujudim bilan his etdim. Uning nuqson bo'lib ko'ringan xislatlari ham dabdaba bilan ko'kdan tushib, bir necha daqiqada erib ketgan do'l donalariga o'xshardi. Menga uning nuqsoni hech gapmasdek tuyuldi, o'zimni sovutdim; tarbiyalab olaman, tarbiya taqani to'g'rilaydi!

Nosirjon ruhiyatida sodir bo'ladigan ichki qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar hikoyada yorqin tasvirlangan. Nosirjon ruhiyatidagi sezimlar qarama-qarshiligi, hissiyotlar kurashi jamiyatdagi real hayotda mavjud bo'lgan voqealar aks-sadosi. Hikoya davomida Nazokatning o'z manfaatini o'ylab, benihoyat darajada mehribonlik, shirinsuxanlik bilan Nosirjonga muomala qilayotgani yetmagandek ukraincha ko'ylak sovg'a qilishining jumboqli siri ochildi, Nazokatning ukasi Nosirjon ishlaydigan institutga hujjat topshirgan, uni institutga kirgazish uchun ko'mak so'ragan edi. Nosirjondan ukasi konsultatsiyalarga kelib tayyorlanishini eshitgan Nazokatxon ukasining nimjonligini, tayyorlanmasdan kirgazish kerakligini so'raganda Nosirjon sevgidan ko'r bo'lgan ko'zlari ochilgandek bo'ldi, bu mehribonliklar nimaga ekanligini angladi. Nazokatxon gapirishdan to'xtamas "...hamma o'qituvchilar tanishingiz, o'rtog'ingiz. Men lol bo'lib qoldim. O'z quloqlarimga ishonmasdim. Bu

iltimos bo'ynimga osilgan tosh bo'lib boshimni egdi. Oldimda ikki masala turardi: yo oshna-og'aynigarchilik, yo haqqoniyat, to'g'rilik. Keyingisi yengdi".

Agar hikoyaning 1957-yilda yozilganini hisobga olsak, yozuvchi jamiyatga kirib kelayotgan poraxo'rlik, tanish-bilishlikning yomon illat ekanligini, bu illat urchiy boshlasa, uni yo'qotish oson emasligini tushunib go'yo zamondoshlarini ogoh bo'lishga undagandek bo'ladi.

Adibning mahorati, Nosirjondan rad javob olgan Nazokatxon portretini ishonarli chizganida, dilidagi zaxa ochib yotgan gapni tiliga ko'chganini ko'rsatib berganida namoyon bo'ladi: ...birdan men tanimas holda o'zgarib, burun kataklari kengayib, oqardi, qoshlari chimirdi, lablari cho'chchaydi. - Nokas tarog'lik bo'ldi, tarog'i kerakli bo'ldi! - deb bir o'shqirdi-da, shartta burilib, orqasiga qaramay yurib ketdi. Men o'z o'ljasi qo'lidan uchgan ovchiday ortidan termilib qoldim. O'z ko'zlarimga ishonmasdim Ertasiga ko'chada ko'rdim, teskari qarab o'tdi. Uch kundan keyin bir bola kelib, u sovg'a qilgan "yangi nusxa" ukraincha ko'ylakning pulini so'radi...

Hikoyada adib Nosirjon ruhiyatidagi ranj, alam, qayg'u holatini shunday tasvirlaydiki, personajlarning hayotiyligini sezmaslikning va bundan ta'sirlanmaslikning iloji yo'q. Boylik orttirish, oshna-og'aynichilik qilish, poraxo'rlik, tanish-bilishlik kabi qusurli illatlarning xalqimiz hayotiga kirib kelayotgani hikoyada juda ishonarli tasvirlangan.

Xulosa qilib aytganda, adib hikoyalari qahramonlari tafakkuri, dunyoqarashi, ruhiy dunyosiga ko'ra bir-biridan jiddiy farq qiladi. Bu qahramonlar butun chigalligi, murakkabligi va o'ziga xosligi, yutuq va kamchiliklari bilan hikoyalarida real ifodalangan. Ular qiyofasida inson ma'naviy olami davr bilan hamohang, hamnafaslikda tasvirlangan. Shuhrat hikoyalarining aksariyatida irodasi kuchli, diyonati mustahkam, imyon-e'tiqodli qahramonlar tasvirlanadi va yana shuni qayd etish kerakki, adib hikoyalarida batafsil bayon qilish yo'lidan bormaydi. "Chunki hikoya janri batafsil bayonni ko'tarmaydi". Qisqa, ammo ta'sirli badiiy lavhalar hikoya tasvirining zalvorini oshiradi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси. / Халқ сўзи. 2017 йил, 4 август.
2. Алимухаммедов А. Абдулла Қаҳҳор хикояларида одам образи: Филол. ф. н. д. дисс. –Т.: 1948; Норматов У. Основное тенденции развития современного узбекского рассказа (1956-1961): Филол. ф.н. д. дисс. –Т.: 1963; Н.Владимирова. Развитие жанра рассказа в узбекской советской литературе.
3. Шухрат. Танланган асарлар. 3жилдлик, 2 жилд. –Т.: Адабиёт ва санъати, 1980. 411-б.
4. Соатова Н. XX аср ўзбек адабиёти тараққиётида Шухрат ижодининг ўрни. Филол. ф. д. дисс. 2023.
5. Умуров Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. –Т.: "Фан", 1983. 81-б.
6. Shuhrat. Yetim boshin silaganlar. Hikoya va qissalar. –Toshkent: "Sharq", 2005.

РЕЗЮМЕ. Maqolada Shuhrat hikoyalarida irodasi kuchli, diyonati mustahkam, imyon-e'tiqodli qahramonlar tasvirlanishi batafsil yoritilgan. Hikoyalarda ibratli qahramon tasviri qiyofasida inson ma'naviy olami davr bilan hamohang, hamnafaslikda tasvirlangan.

РЕЗЮМЕ. В статье подробно описано описание героев с сильной волей, сильной верой и духовность в рассказах Шухрата. В рассказах духовный мир человека изображен в образе примерного героя, соответствующего времени.

SUMMARY. The article describes in detail the description of heroes with strong will, strong religion, and faith in the stories of Shuhrat. In the stories, the spiritual world of man is depicted in the image of an exemplary hero in harmony with the times.

СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РУССКОГО И КАРАКАЛПАКСКОГО НЕОБРЯДОВОГО ЛИРИЧЕСКОГО ФОЛЬКЛОР

Г.Ж.Алламуратова – кандидат филологических наук, доцент

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

А.Ж.Алламуратова – кандидат филологических наук, доцент

Частный образовательный ВУЗ Profi University, г. Ташкент

Таянч сўзлар: фольклор, норитуал лирика, лирик кўшиқ, образлар, ўзига хослик.

Ключевые слова: фольклор, необрядовая лирика, лирическая песня, образы, специфика.

Key words: folklore, non-ritual lyrics, lyric song, images, specifics.

Лирический фольклор — это составная часть устного народного творчества, которая выражает чувства, переживания и мысли отдельного лица или социальной группы. В отличие от эпического фольклора, который фокусируется на сюжете и повествовании, лирический фольклор выступает как

выразитель внутреннего мира человека.

Как отмечает В.П.Аникин: «...лирическая песня — семейная бытовая драма: неудачная любовь, неустоенность судьбы, ссоры близких и родных...Песни могут носить и нетрагический характер — их творцы искали и находили повод даже для бытовой иронии,